


Farg'ona viloyatida sayyor qabul tashkil etildi



Maqsad bitta – har bir insonni tinglash, aholi muammolarini o‘rganish va hal qilish.

Aviakompaniya vakillari aviatashuvchi faoliyatining barcha jihatlari bo'yicha konstruktiv muloqot o'tkazdilar. Tadbirda jismoniy va yuridik shaxslar, aviachiptalar sotuvi bo'yicha agentlar, turistik kompaniyalar vakillari, tadbirkorlik subyektlari, yoshlar hamda OAV vakillari ishtirok etdi.


Image not found or type unknown



Tadbir boshida aviakompaniya tomonidan joriy yilning 7 oyi davomida amalga oshirilgan ishlar, yangiliklar va yangi loyihalar, xususan, yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish maqsadida yaratilayotgani qulayliklar haqida ma'lumot berildi.

Marketing bo'limi mutaxassislari aviakompaniya nafaqat Toshkentdan, balki boshqa hududlardan ham, shu jumladan Farg'onadan ham yangi reyslarni yo'lga qo'yishdan manfaatdor ekanini ta'kidladi. O'tgan yilning oktabr oyidan boshlab aviakompaniya Farg'onadan Dubayga haftasiga ikki marta parvozlarni amalga oshirib kelmoqda.


Image not found or type unknown



Sayyor qabul doirasida yo'lovchilarni qiynayotgan muammolar bo'yicha savol-javob tariqasida ishtirokchilar bilan muloqot qilinib, aholining murojaatlari atroflicha o'rganib chiqildi. Murojaatlarning aksariyat qismi joyida yechimini topdi, qo'shimcha o'rganish va vaqt talab qiladigan murojaatlar bo'yicha mas'ul rahbar va xodimlarga tegishli topshiriqlar berildi.

Aviatashuvlar bo'yicha agentlar, sayyohlik tashkilotlari vakillari jahon tajribasi asosida takomillashtirishni talab qiladigan masalalar bo'yicha o'z qarashlari bilan o'rtoqlashdilar. Barcha istaklar diqqat bilan o'rganilib, keyinchalik ishlab chiqish va amalga oshirish uchun olingan.

Image not found or type unknown



Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu sayyor qabul Instagram ijtimoiy tarmog'i orqali jonli efirda namoyish etildi. Bu o'z navbatida, uchrashuvni nafaqat mamlakat ichida, balki chet elda ham kuzatib borish imkonini berdi.

Uzbekistan Airways aviakompaniyasi ushbu xalq bilan uchrashuvlarni har bir viloyatda uyushtirib, yo'lovchilarni qiynayotgan savollarga yechim topib, ularni taklif-mulohazalarini o'rganishda davom etadi.

Agar sizda biron bir savol bo'lsa, bizning pr@uzairways.com elektron pochta yoki +998 (78) 140-45-20 raqami orqali murojaat qilishingiz mumkin.